

SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA AMIRLIKDAGI HUNARMANDLAR JAMIYATI HAQIDA

Abdullayeva Nargiza Abduxalimovna

BDU 2-kurs magistranti

Buxoro amirligida hamma kosiblar va hunarmandlarning jamiyatlari bo‘lgan. Har bir hunarmand o‘z kasbiga aloqador jamiyatning a’zosi sanalardi. Ammo jamiyatga kirishi uchun ariza berish, a’zolik haqi to’lash kabi shartlar yo’q edi. Agar hunarmand to’quvchi bo’lsa, to’quvchilar jamiyatiga, kovushdo’z bo’lsa, poyafzaldo’zlar jamiyatining a’zosi hisoblangan.

Har bir hunar ahli ruhoniylarning talqini bilan biror tarixiy yoki diniy afsonaviy shaxsni o’zlariga «pir» (rahbar) deb hisoblardilar. Chunonchi, to’quvchilarning piri — Imom A’zam, poyafzaldo’zlar piri — Boboyi Porado’z Buxoriy bo’lib, o‘z vaqtida yamoqchilik qilgan ekan, meshkoblarning piri — Abbas (payg’am- barning amakisi) bo’lib, Karbalo voqeasida Imom Husayn guruhiga Furot daryosidan meshda suv tashigan ekan, temirchilar piri — Dovud payg’ambar bo’lib, u o‘z zamonida zirhsozlik qilgan emish, otboqarlar piri — Qambar Hazrat Alining otboqari ekan.

Ruhoniylar har hunarning hunarmandlari uchun qonun-qoidalar yozib, uni «risola» deb ataganlar. Risolada har xil duolar yozilgan bo’lib, hunarmand ish boshlash oldida, ish davomida va ish tamom bo’lgach, shu duolarni o’qishi lozim. Bundan tashqari, hunarmandning oqsoqol, ustoz va sohibkorlarga (korxona egalariga) munosabati ham shu risolada tayinlab qo’yilgan.

Albatta bu munosabatlar oqsoqol, ustoz va ustaxona egalarining manfaatiga qaratilgan bo’lib, hunarmandning zarariga xizmat qilardi. Hunarmandlar qaysi biri risolada yozilgan qoidani buzsa, oqsoqolga «tartibsizlik» jarimasi to’lashga majbur edi.

Oqsoqol «tartibsizlik» jarimasiga tushgan pulning bir qismini xarjlab har yil (yig’ilgan pulning miqdoriga qarab), bir necha marta «Arvohi pir» nomi bilan ziyofat

berardi. U ziyofat diniy shaklga kirib, xatmi qur’onga aylanardi. Bu ziyofatga taklif etilganlar ham avval ruhoniylar, ikkinchi ustakorlar (ustaxona egalari) katta ustalar va vofurushlar (o’sha kasbning mahsulotini olib sotuvchi savdogarlar va jalloblar) bo’lib, oddiy hunarmandlarning vazifasi bu ziyofatda xizmat qilish edi. Agar kattalarning oldidan biror narsa ortib qolsa, ular o’zlariga yarasha yeishar, yo’qsa lablarini yalab ketardilar.

Har bir hunarning shogirdi, qanchalik hunarmand bo’lmashin, to ziyofat berib, belini bog’lamaguncha shogirdlik darajasidan ustalik martabasiga o’tolmas edi. «Bel bog’latish» ziyofatida odatda shu shogirdning bevosita ustasi, shu kasbning kattalari — oqsoqol va katta ustalar hozir bo’lar va albatta uch ruhoniy ham bel bog’latish ziyofatining to’rini ishg’ol qilardilar.

Shogird ziyofat oxirida o’z ustoziga katta hadyalar berar, ruhoniylar, oqsoqol, agar shogird ustaxona shogirdi bo’lsa, ustakorni ham tuhfadan quruq qoldirmas edi.

Ustakor tuhfa olgandan so’ng bir belbog’ni shogirdning beliga bog’lar va qo’liga shu hunarning asboblaridan birini (agar duradgor bo’lsa tesha yo arra, shuvoqchi bo’lsa andava, sartarosh bo’lsa ustara yo qaychi va shunga o’xshash) berardi va unga risolaga muvofiq mustaqil ish qilishga ruxsat va fotiha berardi. Ruhoniylar qur’on o’qib shu hunarning piri arvohiga bag’ishlardilar, shu bilan «belbog’ bog’latish» ziyofati tamom bo’lardi.

Hunarmandlarning har bir jamiyatida bir oqsoqol bo’lib, jamiyatning ishlarini bevosita shu odam idora qilardi, shunga o’xshash yana bir «poykor» yugurdak ham bo’lardi. Uning vazifasi kerak bo’lgan chog’da shu jamiyat a’zolarini bir joyga yig’ish, oqsoqolning farmoyishi bilan jamiyatning boshqa mayda-chuyda ishlarini qilishdan iborat edi.

Odatda har bir jamiyatga oqsoqol saylanardi. Lekin saylovda faqat katta ustalar, ustakorlar va vofurushlargina ishtirok etardilar. To’g’rirog’i, bu «saylovchilar» o’zaro maslahat qilib, kelishib, bir kishini oqsoqol qilib tayinlardilar, poykorni esa, oqsoqolning o’zi tayinlardi. Oddiy hunarmandlar esa, saylov majlisida bo’lsin, bo’lmashin ularning vazifasi kim saylanganini eshitishdan iborat, xolos.

Hunarmandlar jamiyatining kattarog'i poyafzaldo'zlar, meshkoblar, otboqarlar va to'quvchilar jamiyati edi. Katta jamiyatlardan otboqarlar va meshkoblar jamiyatining risolalari garchi diniy ruhda bo'lsa ham, hunarmandlarning manfaatlarini bir daraja himoya qillardilar. Bularning saylovlari omma ishtirokida bo'lardi.

Chunonchi, har hovuz meshkobchilarining oqsoqolini shu hovuzdan suv tashiydigan meshkobchilar ommasi ochiq tarzda saylardilar. Kichik hovuzlarning meshkobchilari oz sonli bo'lganlari sababli, oqsoqol saylovida o'zlariga yaqinroq katta hovuz meshkobchilariga qo'shilib saylov o'tkazardilar.

Meshkoblar oqsoqolining vazifasi suv iste'molchilari oldida meshkobchilar huquqini himoya qilishdan iborat bo'lardi. Masalan, bir meshkobchi bir hovli egasi bilan kuniga bir yo ikki mesh suv keltirib berishga kelishadi. Agar meshkobchi bilan hovli egasi orasida janjal chiqsa, ya'ni hovli egasi meshkobchi- ning haqini to'lab bermasa, meshkobchi u hovliga suv tashishni to'xtatib, bu haqda oqsoqolga xabar qilardi. Bunday mavridda hovli egasi qancha ortiq pul bersa ham, boshqa biror meshkobchi unga suv tashib bermasdi. Agar biror meshkobchi pulga aldanib, unga suv tashib bergunday bo'lsa, oqsoqol undan qoidani buzgani uchun shtraf olib, qayta u joyga suv tashishni man etardi. Agar u meshkobchi ikkinchi marta qoidani buzib u hovliga suv keltirsa, oqsoqol uni suv tashish huquqidan mahrum etib, meshkobchilar qatoridan chiqarib yuborardi. Xullas, to hovli egasi o'zining avvalgi meshkobchisini rozi qilmaguncha boshqa meshkobchi unga suv tashib bermasdi. Hovli egasi avvalgi meshkobchisini rozi qilgandan so'ng, u hovliga suv tashish huquqi birinchi navbatda o'sha avvali meshkobchining o'ziniki bo'lardi. Bordi-yu, u o'z ixtiyori bilan bu joyga suv tashishni istamasa, u holda boshqa meshkobchi bu hovliga suv tashishga haqli bo'lardi. Meshkobchilarning xuquq- larini bu xilda himoya qilish ularning risolalarida yo'q edi. Lekin hayot ularni o'z huquqlarini himoya qilish uchun risolada yozilmagan shu qoidani o'z oralarida joriy etishga majbur qilgan edi.

Oqsoqolning yana bir vazifasi suv tashish tartibini nazorat qilish edi. Meshkobchi meshni yerga qo'ymasligi lozim edi, suv olayotgan vaqtida meshning bir tomoni hovuz zinasiga tegib turadi, shuning uchun mesh- kobchi zinaning shu joyini yuvishi, so'ngra

meshning bir uchini shu toza joyga qo'yib turib suv olishi lozim. Shuningdek, meshga suv quyadigan charm do'lchani yerga qo'yish man etilgandi. Meshkobchi o'z meshini suv bilan to'ldirgach, do'lchani mixga yoki daraxtga ilib qo'ymog'i lozim edi. Agar meshkobchi shu qoidalarning birortasini buzsa, oqsoqol undan qoidani buzgani uchun ikki tanga jarima olardi va shu yo'l bilan to'p- langan pullarni «Arvohi pir» ziyyaratiga sarf qilardi. Meshkobchilarining ham «Arvohi pir» ziyoфati diniy ruhda o'tardi.

Shuvoqchilar va duradgorlar jamiyatni ham o'z a'zolarining huquqini bir daraja himoya qilardi. Agar bir usta bilan sohibkorning orasi buzilib, usta binokorlikni chala tashlab ketsa, boshqa ustaning bu imoratni tamomlashga haqi yo'q edi. Sohibkor avvalgi ustani rozi qilgandan so'ng, agar u usta qaytib bu joyda ishlashni xohlamasa, boshqa ustaning u joyda ishlashi mumkin edi. Bu jamiyatning ham «Arvohi piri» diniy ruhda o'tardi.

Hunarmandlar jamiyatining eng erkini otboqarlar jamiyatni bo'lib, bunga aravakashlar ham a'zo edilar. Otboqarlar jamiyatining oqsoqoli qilib biror joyda shu kasbda ishlab turgan qariyalardan biri saylanardi. Shuningdek, oqsoqol sayloviga otboqarlar faolroq ishtirok etardilar. Otboqarlarning ham diniy ruhda yozilgan risolalari bor edi, lekin ular risolada aytilgan qoidalarga hech hachon amal qilmas edilar va «Arvohi pir» ziyoфatini bermasdilar. Bu kasbning shogirdlarini «Navcha», (yangicha) deb atalardi. Bular otboqarlik kasbini egallab olgach, «belbog' bog'lash» marosimi o'tkazmay, mustaqil ishlab ketaverardilar.

Bu jamiyatda to'planadigan pullar qoidani buzgani uchun a'zolardan olinadigan jarima tariqasida emas, balki a'zolarni ishga kiritish yo'li bilan yig'ilardi. Qaysi otxonaga otboqar kerak bo'lsa, oqsoqolga murojaat qilardi. Oqsoqol bir yo bir necha otboqarni talab qilgan kishiga topshirib, ularning oyligi va kundalik oziq-ovqatlarini tayin qilib berardi.

Har bir otboqarni ishga joylaganda oqsoqol xo'jayindan ikki tanga, otboqardan ikki tanga olardi. Lekin u bu pulni o'zi uchun yo boshqa narsaga sarf qilmay, biror otboqar bekor qolsa, yoki xo'jayin bilan kelishmay, ishni tashlab ketsa, oqsoqolga murojaat qilardi, oq- soqol ham uni to yangi ishga joylaguncha boqar va to'plangan mablag' mana shularga sarf bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ражабов Q. Файзулла Хўжаев (тариҳий эссе). Т.: Abu matbuot- konsalt, 2011
2. Наимов Н. Амирнинг хазинаси. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. – Б. 53.
3. То‘rayev N. Buxoro tarixi / O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2020. - В. 165.
4. Айний С. Эсдаликлар. I- IV қисмлар. / Асарлар. 8 жилдик. 5 – 7 жилдлар. Т: Ўздавнашр, 1965-1967.